



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 14 (929)
8-sentyabr, Chorshanba
2021-yil

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА

Gazet 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

FIDOYILAR MUNOSIB TAQDIRLARDI

**B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati**

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan yurtimizda “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik!” shiori ostida bir qator islohotlar o‘z tasdig’ini topdi. Mustaqilligimizning so‘nggi besh yili, ayniqsa, nafaqat tibbiyot sohasida, balki barcha sohaning rivoji bo‘ldi. Mana shu vaqt mobaynida talabalarimiz institutimizning yangi va zamонавиј-инновацисион jihozlar bilan ta’minlangan xonalarda tahsil olish-yapti. Tibbiyot sohasidagi xalqaro fan olimpiyadalarida munosib va faxrli o‘rinlarni egallab, institutimizdagi ta’lim salohiyatini namoyon etishdi. Bularning zamirida, albatta, mehnatkash va fidokor ustozlarning mehnati turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi tegishli Farmoni asosida mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan hamda jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etayotgan bir guruh yurtdoshlarimiz “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan mukofotlandi. Mukofotlanganlar orasida Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining bir guruh xodimlari va professor-o‘qituvchilari borligi jamoamizni quvontirib, faxr tuyg‘usini beradi. Jumladan: AXMEDOVA Muborak Axmedovna, ABDUL-LAYEV Sherzod Saydullayevich,

XUDAYBERDIYEV Asomiddin Kurbonkulovich; USTA-AZIZOVA Dilnoza Axrarovna; BEGMANOV Sattar Amanjulovich; ALIMOVA Muhiba Muzaffarovna; MUSUR-MONQULOV Jahongir Mahammjonovich; SAYDAZIMOV Kamol Tulkunovich; MADJIDOVA Yoqutxon Nabiyevna; RASULOVA Nilufar Farxadevna; ISAYEVA Nilufar Zubidullayevna; PRIMOVA Gulra’no Abdumannapovna; AKBAROVA Muruvvatxon Sobirovna; TURSUNOVA Oliya Abduraupovna; NUR-METOVA Nilufar Mahmudjanovna. Yuqorida nomi keltirilgan barcha institutimizning fidoyi xodimlariga bu mukofot – boshlanayotgan yangi o‘quv yili davomida yanada kuchg‘ayrat baxsh etidi.

B undan tashqari, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining turli sohalarida ko‘p yillarda samarali mehnat qilib, hurmat va e’tibor qozongan yurtdoshlarimiz Prezidentimizning 2016-yil 28-dekabrdagi farmoniga muvofiq ta’sis etilgan “Mehnat faxriysi” (I darajali, oltin yulduz) ko‘krak nishoni bilan taqdirlandilar. E’tiborlisi, taqdirlanganlar qatorida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti vakillarining ham mehnatlari e’tirof etildi va ular ham mukofotlanishdi. Bu mukofot sohiblari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimidan: DAMINOVA Malika Nasirovna; MIRZAYEVA Mamlakat Aynakulovna; NAZAROV Ozod Axmedovich; FAYZIEVA Muxabbat Fayzievna hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan: Turdiyeva Kavsar Sheraliyevna kabi fidokor ustozlarimizdir. Darhaqiqat, xalqqa xizmat bu – uning farzandlariga berilayotgan ta’lim va tarbiya bilan boshlanadi. Negaki, bugungi bir soniyalik zamondosh xalqlar-

dan tibbiy ta’lim sohasida ortda qolish – keljakning yuz yiliga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan rivojlanish asridamiz. Bu borada farzandlarimizni va ularning salohiyatini o‘z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilayotgan institutimiz xodimlariga ishonamiz.

Yangi O‘zbekiston – har qanday sohada yoshlari ilg‘or, istalgan sport va ta’limda jahon minbarlarida davlatimiz madhiyasini yangratib, mustaqil yurt bayrog‘ini ko‘klarga ko‘taradigan, zamonaviy-innovation ish o‘rinlariga boy, har qanday korruption tizimlardan xoli bo‘lgan jamiyatdir. Shu xususida, tibbiyot sohasining alohida o‘rnii bor. Bugungi kunga kelib, turli inson organlari bilan olib boriladigan jiddiy operatsiyalarni amalga oshirish uchun chet el mamlakatlaridan mutaxassis izlashga ehtiyoj qolmadidi. Buning uchun turli jarrohlik anjomlari va barcha shart-sharoitlar yetarlicha ta’milanyapti va talabalarini amaliy jarayonda o‘qitish uchun bu kabi tibbiy-o‘quv qurollari yetarlicha olyigholarga yetkazib berildi. Ayniqsa, institutimizning barcha xodimlari uchun yaratilgan innovatsion ish joylari, zamonaviy-tibbiy o‘quv qurollari o‘z kasbiga bo‘lgan muhabbatini yanada yuksaltiradi.

Shu o‘rinda, yuqorida ta’kidlangan mukofot sohiblari hamda barcha institutimiz xodimlariga Yangi O‘zbekistonga yangi yutuq va fidokorona xizmat qilishlariga ishonamiz. Aziz hamkasblar! Yangi o‘quv yili boshlanishi oldidan bu e’tirof – nafaqat yurtboshimizning, balki xalqimizning sizlarga bildirgan yuksak ishonchidir. Zero, kasblarning ulug‘i ham, mashaqatlisi ham – ustozdir! Yana bir bor xalq e’tirofi muborak bo‘lsin!

MUSTAQILLIK NE'MATLARI



— Assalomu alaykum, ustoz. Professor Erkin Tursunov siyemosida bugun haqiqiy fidokor ustozni ko'ramiz. Mustaqillikdan avvalgi va hozirgi faoliyatning haqida to'xtalib o'tsangiz.

— Va alaykum assalom. E'tirof uchun rahmat. Institut bu – mening ikkinchi uyim. Bu yil institutdagi ish faoliyatimga 58 yil bo'ldi. Buni qarangki, ish faoliyatimning deyarli yarmi sobiq mustamlakachilik davrida to'g'ri kelgan. 1972-yildan institutimiz faoliyati boshlangan bo'lsa, bu davrlarga institut ham Moskvaga qarardi. Avvalo, darslarni rus tilida olib borish haqida qaror chiqqan va talabalarimiz so'rovidan keyin atigi 1- va 2- bosqich talabalariga ona tilimizda dars olib borilishiga ruxsat berilgan edi. O'zim guvohi bo'lgan bir voqeani aytadigan bo'lsam, oddiy o'zbek bolasi talabalikka qabul qilingan edi. Rus tilini bilmagani uchun u institut rahbariyatiga "rus tilini bilmasligim uchun o'qishdan chetlappingizni so'rayman" deb murojaat qilgan. Bu masalani institut kengashi ko'rib chiqdi. Eng qiziq jihat bilim olishga ishtiyoqi bor yosh yigit o'z ona

tilida ta'lif ololmadi. Avvalo, mustaqillik bizga tilimizni qaytardi. Ona tilimizda erkin so'zlay olish imkonini berdi, ya'ni qaysi oliy ta'limga bormang, o'z ona tilimizda ta'lif olish huquqimiz bor. Hattoki ona tilimizda darsliklarni topish biz uchun muammoli holat edi. Bitta fan bo'yicha kitob chiqarmoqchi bo'lsak, avvalo, Moskvadan ruxsat olib, rus tilida chop ettirar edik. Bugunga kelib, istalgan darslikni istalgan tilingizda topishingiz mumkin. Meni achintirgani bolajonlarimizning tili ham beixtiyor rusiyabon bo'lib chiqardi... O'zbek desa sobiq ittifoq davrida "paxta dalasi" ko'z o'ngida gavdalananadigan davrlar edi. Chunki 13-15-sentyabrlardan talabalar va o'quvchi-yoshlar paxta terimiga jalb qilinar edi. Qarabsizki, ta'lif olish o'rniiga dekabrgacha talabalarimiz dalada "dars" o'tardi... Demak, mustaqillik bergen ne'matlardan yana biri bu – ta'lindagi sifat, erkinlik. Bugun yoshlarimiz har qanday sohada vatanimiz bayrog'ini jahon arenalarida ko'klarga ko'tarib qaytishmoqda. Mustaqillik bolalarini ko'rib qaytadan yosh bo'lging keladi (kuladi).

— Mustaqillikning hayotin-gizdag'i o'rni qanday?

— Mustaqillikning mening hayotimda tutgan o'rni shundaki, oilam bilan kalxozda yashab kelardim, Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning farmoyishlari bilan har bir xonadonga yer berildi. O'shanda biz ham o'z uyimizga ega bo'ldik. Mustaqillik davrlarida yashash tarzimiz tubdan o'zgardi. Bugunga kelib, institut xodimimisiz, yoki boshqa sohada farqi yo'qki,

tadbirkorlik qilish barchaga birdek holat bo'lib qoldi. Chunki xalqimiz orasida azaldan yashab kelayotgan naql bor: "Xalqi boy elning bolalari farovon hayot quradi". Darhaqiqat, yoshgina o'g'il-qizlarimiz tadbirkorlik qilib, ishsizlarga ish o'rinalarini yaratib bermoqda. O'zim yaqinda guvohi bo'lgan bir voqe: maktab bitiruvchilarini bandligini ta'minlash bo'yicha Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev qarorlarida belgilangan vazifalar bilan har bir tuman mas'ullari shug'ullanib, oliy ta'limga talablikka qabul qilinmagan maktab bitiruvchilarini o'zlar qiziqqan sohada tadbirkorlikka yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlar amalda yo'lga qo'yilmoqda. Bularning barchasi xalqimizning farovon yashashi uchun olib borilyapti.

— Institut talabalarining mustaqillik yillardagi yu-tuqlari haqida suhbatlashsak, ustoz.

— Bu so'z oddiygina aytilsa-da, aslida mustaqillik – bizning yoshlarimizga ta'lif olishdagi barcha qulayliklarni yaratgan ne'matdir. Bugun yoshlarimiz istalgan davlatga tajriba almashish uchun, tahsil olish uchun bora oladi. Institutimiz talabalarini orasida bir qancha xalqaro fan olimpiyadalarida g'olib bo'lgan yoshlarimiz bor. Bir vaqtlanri o'z ona tilida ta'lif olilmagan xalqning bolasi, bugun o'z ona tilida jahonda tanilmoqda. Beixtiyor, shunday yoshlarni ko'rganimda mustaqilligimiz uchun shukrona aytaman.

**Erkin TURSUNOV
Gistologiya, patalogiya va fiziologiya kafedrasi professori**

“MUSTAQILLIK MENING TAQDIRIMDA...”

— Assalomu alaykum, Hamidulla aka. Bir so‘z bilan aytganda mustaqillik siz uchun nima?

— Va alaykum assalom. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, mustaqil bo‘lgan davlatlar barcha jabbada yangilik qilishga, rivojlanishga harakat qiladi. Shu xususida bu jarayon bizning endigina mustaqillikni tan olgan davlatimizga ham oson kechmadi...

1991-yili hozir faoliyat olib borayotganim – Toshkent Pediatriya tibbiyot institutiga talaba sifatida qabul qilingan edim. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasini Mustaqil davlat deb e’lon qilganidan so‘ng xalqimiz ma’naviyatida anchagina olg‘a intilish bo‘ldi, shu bilan birga iqtisodiy jihatdan yurtimizda qiyinchiliklar ham cheklab o‘tmadi. Mustaqilligimizning o‘tgan 30 yilining har bir kungi asar yozsa arzigulik davr bo‘ldi. Avvalo, chet el davlatlari bilan hamkorlik ravnaq topdi hamda yurtimizga ham yangicha texnologiyalar kirib kela boshladi. Qanday soha bo‘lmasin, o‘z rivojiga ega davr bo‘ldi, ayni damda tibbiyot ham yangicha bilim va ko‘nikmalar bilan boyib bordi. Mustaqillik bilan birga talabalik davrini boshdan kechirar ekanman, oliy ta’limni tamomlagach, ish topish anchagina muammo bo‘lgan davrlar bilan birga bugunga kelib, har bir talabaning shartnoma asosida oliygoh tomonidan ish bilan ta’milanishi ham anchagina ilg‘or qadamlar ekanini his qilaman. Bularning tag zamirida

yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning samarasi turadi. Shuni aytta olamanki, mustaqillik bu – men uchun jadal rivoj davridir.

— Mustaqillik sizga nima berdi?

— Ortda qolgan yillar sarhisobiga qarar ekanman – mustaqillik menga baxt berdi deya olaman, ya’ni: dastlab talabalik davrimidan boshlab shifokorlik kasbim bilan faoliyat yuritdim, oilali bo‘ldim – mana 4 nafar farzandim bor, avval fan nomzodi so‘ngra tibbiyot fanlar doktori bo‘ldim va bu vaqt mobaynida 14 ta kitob chop ettirdim. Mening eng katta yutuqlarimdan biri – davlatimiz mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan o‘z faoliyatimda 1 ta shogird chiqargan bo‘lsam, 14-kitobimni ham shu yili nashrdan chiqardim. Bularning barchasida institutimiz ma’muriyati katta hissa qo‘shti: avvalo kitob yozish uchun sharoit yaratib bergen bo‘lsa, kitobning nashr xarajatlari ham to‘liq institutimiz ma’murati tomonidan qoplab berildi.

— Tibbiyot sohasida, sizningcha, mustaqillikning tutgan o‘rni qanday?

— Shuni alohida aytishim kerakki, mustaqillik davri – tibbiyot sohasining rivoji bo‘ldi. Buni qisqacha aytadigan bo‘lsak: bitta ilmiy xodim faoliyatidagi izlanishlarining hisobini chiqarish uchun ancha qiyinchiliklar bilan erishardi. Buning uchun bir necha oy kerak bo‘lardi. Bugunga kelib kompyuterlashgan zamonda bu



hech bir ilmiy xodimga muammo tug‘dirmaydi, bor yo‘g‘i bir hafta sarflanyapti. Bu esa vaqtdan yutishga yordam beradi. Yana shuni ta’kidlashim kerakki, Rossiya Federatsiyasining tibbiyot institutlari bilan institutimiz hamkorligi yo‘lga qo‘ylgan. Buning natijasi o‘larоq Sankt-Peterburg shahrida malaka oshirish jarayonimda mutaxassislar ta’kidlashganidek, O‘zbekistonda tibbiyot sohasi rivoji oshib borayotgani quvonarli holat. Ayni bu kabi islohotlarning zamirida yoshlarining kelajakda salohiyati yetuk kadr bo‘lishiga qaratilgan g‘oya yotadi.

— Hamidulla aka, suhbat uchun rahmat. Yangi o‘quv yili boshlanishi oldidan institutimiz talaba-yoshlariga dil so‘zingiz.

— Avvalo, talabalarimizga mustaqillik farzandi ekanini his qilib yashashlarini va bunga munosib tarzda ilm olib, kelajakda yetuk kadr bo‘lib yetishishlarining tilakdoshiman.

**Dilafro‘z CHORIYEVA
suhbatlashdi**

MUSTAQILLIK BIZGA NIMA BERDI?



Mustaqillikning oxirgi besh yilda aynan meditsina sohasida ko‘pgina yangilanishlar bo‘ldi. Avvallari respublikamizning uzoq viloyatning tumanlarida poytaxtga kelib davolanish anchagina muammo tug‘dirar edi, endi esa respublikamizning eng yaxshi mutaxassis shifokorlari o‘zлari uzoq tumandagi bemorlarni tekshirish uchun borishmoqda. Shu xususida o‘tgan yaqin vaqt ichida bizning klinikamiz ham respublikamizning uzoq viloyatlarida – Surxandaryo, Xorazm yoki Namangan va Farg‘ona viloyatlarining turli tumanlarida o‘z aksiyasi bilan borib, bemorlarga qulaylashtirilgan narxlardagi hamda sifatlari operatsiya jarayonlarini olib bordi.

Medsina sohasida gap borar ekan, avvalo shuni ta’kidlashimiz kerakki, bugun qaysi inson organi bilan olib boriladigan operatsiya jarayoni bo‘lmisin, chet el mamlakatlariiga borish uchun endi hojat yo‘q. Chunki barcha jiddiy operatsiyalar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiliklarida chet el mamlakatlaridan mutaxassislar yurtimizga taklif etilib, meditsinaning barcha sohasida yurtimiz shifokorlari bilan tajriba almashishyapti. Buning qulayliklari shundaki, chet elga borish hamda davolanish uchun xarajatlar sarfi kamayadi. Bemorlarning oila a’zolari bevosita operatsiya jarayonlariga guvoh bo‘lib, yaqinlarining mehri va parvarishi da sog‘liklarini tiklashi yanada osonlashyapti. O‘ylaymanki, bularning barchasi aholi salomatligini yaxshilash uchun mamlakatimizda olib borilayotgan yangicha islohotlarning natijasidir. Yuqorida ta’kidlangan islohotlarning natijasi sifatida institutimiz tomonidan klinik ordinatura yo‘nalishi bo‘yicha 32 nafar talabani chet el tajribalarini o‘rgatish maqsadida 2 yillik o‘qishga yuborilmoqda. Shu xususida Sankt-Peterburg shahrida joylshgan tibbiyot instituti bilan shartnomamiz bor: uch yil oliygohimizda ta’lim olgan talaba keyingi uch yillik talimni Sankt-Peterburgda olishi mumkin va ayni damda ular ikkita diplomga ega bo‘lishadi. Yana bir quvonarli jihat shundaki, institutimizning har bir kafedrasi chet el tibbiyot institutlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bormoqda. Chet el tibbiyot instituti mutaxassislar kelib talabalimizga turli qiyin operatsiya jarayonlari haqidagi dars berishyapti. Bularning barchasi yoshlarimizning bilim salohiyatini oshirish uchun olib borilyapti, aynan meditsina sohasida so‘nggi 5 yil ancha yangilanish va tajribaga boy vaqt bo‘ldi.

Bundan tashqari mamlakatimizda oly ta’limda o‘qishni xohlovchi abituriyentlar uchun barcha qulayliklarga ega yangi o‘qish maskanlari yaratilib, har yili qabul kvotalari

soni oshirilayapti. Har yili 9 foizgina abituriyentlar talabalik maqomiga ega bo‘lish imkonini bor edi. Bugungi kunga kelib 16 foiz abituriyentlarimiz talabalikka qabul qilinyapti. Bu ko‘rsatkichlar sonini 50 foizga oshirish maqsadida yurtboshimiz qarorlari bilan yangi oly ta’lim muassasalari qad ko‘tarayotganining guvohi bo‘lamiz. Bugun barcha ta’limga ishtiyoq-mand yoshlarimizga keng imkoniyatlar eshigi ochiqdir.

Shuni alohida ta’kidlashimiz joizki, so‘nggi yillarda butunjahon mamlakatlarini qamrab olgan Covid-19 kasalligi yurtimizni ham chetlab o‘tmadi va bu vaqt monaynida yurtimizning fidokor shifokorlari jonbozlik ko‘rsatishdi. Bu boroda institutimiz klinikasining barcha shifokor-xodimlari chekka joyda joylashgan hududlarga borib, bemorlarga yordam ko‘rsatishdi. Shifokorlarning mehnati samarasini o‘laroq bugungi kunga kelib yurtimizda bu kasallik bilan kasalanishlar soni ancha kamaygan.

Klinikamizning moddiy-texnik bazasi bo‘yicha barcha aparaturalar va dori-darmonlarimiz yetarli hamda yaqin yillarda kislorod apparatlarining minizavodi qurib berilishi rejalashtirilgan. Demakki, yurtimiz ravnaqi bo‘lgan davlatimiz mustaqilligini tibbiyotning ham istiqboli deya olamiz.

Abdumalik JALILOV
Davolash ishlari
prorektori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o‘qituvchilar tarkibi bo‘yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e’lon qiladi:

PROFESSORLAR: Endokrinologiya, bolalar endokrinologiyasi; Gospital bolalar xirurgiyasi.

DOTSENTLAR: Bolalar kasalliklari propedevtikasi, gematologiya; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Fakultet pediatriya; Ijtimoiy fanlar; Onkologiya, bolalar onkologiyasi; Gospital bolalar xirurgiyasi; Otorinolaringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Shoshilinch pediatriya va tibbiyot huquqi; Akusherlik va ginekologiya va bolalar akusherligi va ginekologiyasi; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari; Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish; Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi; Oilaviy shifokorlik ‘1.

KATTA O‘QITUVCHILAR: O‘zbek tili va adabiyoti; Ijtimoiy fanlar; Jismoni tarbiya.

ASSISTENTLAR: Shoshilinch pediatriya, xalokat tibbiyoti; Klinik farmakologiya; Tibbiy radiologiya; Oilaviy shifokorlik ‘1.

Tanlov muddati – e’lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh Bog‘ishamol ko‘chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 08.09.2021.

<p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТИУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, Nashr uchun mas‘ul: R. G‘o‘chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay‘ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o‘rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog‘ishamol ko‘chasi, 223</p>
			<p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>